Urbanizatsiya va ekologik muamolar

Nurmatov Husniddin Rasuljon og'li
Talaba. Farg'ona Politexnika inistituti. Farg'ona shahri

Hozir va kelajakda tabiiy muhitga urbanizatsiya jarayonining ta'siri kuchli darajada bo'lishiga shubha yo'q. Chunki shahar aholisining salmog'iyildan yilga ortib bormoqda. Urbanizatsiyaning jadal rivoj-lanishi yer yuzasida ekologik vaziyatning murakkablashishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Urbanizatsiya jarayoni tabiat komponentlarining barcha-sida kuchli o'zgarishlar sodir etishi ayon. Shaharlarda grunt, rel'ef tuproq gidrografik tarmoqlar, yer osti suvlari, atmosfera havosi, o'sim-lik qoplami, hayvonot dunyosi hatto iqlim o'zgaradi.

Shaharlarda nafaqat harorat, nisbiy namlik, quyosh radiatsiyasi balki, yerning issiklik, gravitatsiya, elektr hamda magnit maydonlari xususi-yati ham sezilarli darajada o'zgaradi. Shaharlarning kattalashishi uning atrof tabiatiga ta'sir radiusini ham orttiradi, natijada shahar hududi bilan birga uning atrofida ekologik vaziyatdagi mutanosiblik yo'qoladi. Shaharlar atrofidagi tabiiy hududiy majmualar (TXM) ga 3-30 km. masofada ta'sir ko'rsatadi. Sanoat korxonalarining turli chiqin-dilar (zaharli gaz, iflos suv va x. k.) chiqarishi oqibatida shaharlar atrofidagi ekin dalalari, o'tloq, yaylov, suv havzalari va o'rmonlar zarar ko'rmoqda. Kanadalik olimlarning kuzatishlaricha, mis - nikel korxonalari chiqindilari 3,5 km. radiusdagi o'simlik va hayvonlarni butunlay yo'q qilishi, 13 km. dagi daraxtlarga kuchli shikast yetkazishi, tuproq unumdorligini yo'qotishini ko'rsatdi. Tog' - metallurgiya korxona-lari ta'siri ham yuqoridagidan kam emas. Ko'pgina shaharlarda yer osti suvlaridan iste'molga olinishi oqibatida shahar zaminining chukishi ro'y bermoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, Tokio va Osakada zamin yiliga 18-20 sm., Koliforniyada – 30 - 35 sm. Mexikoning ayrim hududlarida 40 sm. ga pasaymoqda. Shahar zaminining cho'kishi, insonning boshqa faoliyatlari bilan ham bog'liqdir. Masalan: Moskva shahri ostidagi suv quvurlari uzunligi, shahar ko'chalari umumiy uzunligidan ikki marta ko'p ekan. Demak bu shaharning turli hududlarida o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yangi shaharlarning barpo etilishi eskilarining kengayishi, avvalo yerning qishloq xo'jalikdan chegirilishiga sabab bo'ladi. Tog'-kon ishlari - bu qiyin tabiiy sharoitlarda, katta xavf va uzoq investitsiya davri bilan olib boriladigan ishlar. Faqat boy mineral konlarga ega bo'lish va ushbu resurslarni xom ashyo sifatida eksport qilish mamlakatlarning rivojlanishi uchun etarli emas. Ushbu resurslarni ishlab chiqarish va ularni sanoatda ishlatish uchun yakuniy mahsulotga aylantirish kerak. Qaysi sohadan qat'i nazar, sanoat ob'ektlari atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida zarur huquqiy normativ hujjatlar ishlab chiqiladi va tekshiriladi. Mamlakatimizda ishlab chiqarish va atrof-muhit o'rtasidagi muvozanatni o'rnatish nuqtai nazaridan huquqiy me'yoriy hujjatlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda tabiiy muhitni muhofaza qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirlarni minimallashtirish to'g'risida xabardorlik oshib bormoqda.

U.jarayonining rivojlanishi shaharlarning o‘sishi va shahar axrlisining shakllanishi, shahar aholisining tabiiy o‘sishi, shahar atrofi hududlarining ma'muriy jihatdan shaharga qo‘shilib borishi, qishloq aholi manzilgohlarining shahar maqomini olishi bilan bog‘liqdir. Shaharlarning o‘sishida shahar atrofi zonalarida shahar turmush tarzining shakllanib borishi, ya'ni U. jarayonining kuchayishi ham ahamiyatlidir. Katta shahar atrofida kichik shaharlar paydo bo‘lib, katta shaharlarga qo‘shilib boradi va shaharlar aglomeratsiyassh hosil bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarda aglomeratsiya jarayoni avj olgan, alohida aglomeratsiyalarning qo‘shilib ketishi natijasida megapolislar vujudga kelmoqda.

U.ning asosiy ko‘rsatkichi shaharliklar sonining o‘sishi va jami aholi tarkibida shahar aholisi salmog‘ining ortib borishidir. 20-asrning oxiri va 21-asr boshlarida dunyoda shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishi, ya’in U. jarayoni kuzatilmoqda. Bu esa shahar aholisi salmog‘ining ortib borishiga olib kelmokda. 1950-yil dunyo aholisining 28,9% shaharlarda yashagan. 1960-yil bu ko‘rsatkich 33,9% ni, 1970-yil 37,4%, 1980-yil 41,1%, 1990-yil 45,8% va 2000-yil 51,2% ni tashkil etdi. Shahar aholisining salmog‘i rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori (2000-yilda AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Shvetsiyada 75% va Germaniyada 94%, Rossiyada 73% bo‘lgan). Osiyo va Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarda U. jarayoni dunyoning o‘rtacha ko‘rsatkichidan ancha past. 2000-yilda shahar aholisining salmog‘i Afg‘oniston va Efiopiyada 11 — 14% ni, Miyer va Turkiyada 45% ni tashkil etdi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda U. ko‘lamiga, asosan, shahar aholisining tabiiy o‘sish jarayoni kamayib borishi ta’sir etmokda. 1991-yil O‘zbekistonda har 1000 aholiga nisbatan tabiiy o‘sish 19,9 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2002-yilda bu ko‘rsatkich 10,8 kishini tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Qudratov ‘’Sanoat ekalogiyasi,, Toshkent-2003.
2. Internet sayitlari:https://www.uznature.uz, Ekalogiya va Atrof muhitni muhofaza qilish.
3. “Umumiy ekalogiya,,talabalar uchun darslik Toshkent-2003.